

---

## QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

### Qonunchilikdagi yangiliklar

Jismoniy shaxslar tomonidan naqd valyutani bojxonadan deklarasiyasiz olib o'tish miqdori oshirildi

Vazirlar Mahkamasi qarori (443-son, 04.09.2023-y.) bilan Hukumatning ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi

Qarorga ko'ra:

Jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilayotgan va olib chiqib ketilayotgan 100 million so'm ekvivalentdan ortiq miqdordagi O'zbekiston Respublikasining naqd valyutasi va (yoki) naqd chet el valyutasi yo'lovchi bojxona deklarasiyasini to'ldirish va bojxona organi xodimiga taqdim etish yo'li bilan bojxona nazoratidan o'tkaziladi. Ilgari 70 million so'm edi.

Jismoniy shaxslar deklarasiya to'ldirish talab etiladigan belgilangan ekvivalentdan ortiq miqdordagi naqd valyuta mablag'larini bojxona nazorati shakllari qo'llanilmasdan oldin deklarasiyalamagan holda bojxona organlari xodimlariga maslahat olish maqsadida taqdim etganda, bojxona organlari xodimlari tomonidan jismoniy shaxslarga deklarasiya to'ldirish qoidalari bilan bog'liq umumiy tushuntirishlar beriladi. Ilgari bu qoida mavjud emas edi.

Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran 3 oy o'tgach kuchga kiradi.

### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-09-08 16:09:42